Qurilish sohasidagi yangilik va o‘zgarishlarni ko‘rsatish, qurilish sifati va jarayonni yoritish bu sohaga dahildor bo‘lmagan insonlar uchun ham qiziq mavzu bo‘lib kelgan. Agar mavzu qanchalik qiziq bo‘lsa, media vakillari tashkilot bilan doimiy hamkorlikni o‘rnatishga harakat qilishadi. Televideniyada qurilish sohasidagi mavzularini yoritishning samarali yo‘llaridan yana biri xalqaro tajribalarni o‘rganish va ulardan foydalanishdir. Masalan, Yevropada har bir qurilish obyekti uchun quruvchi tashkilot tomonidan axborot xizmati xodimi yollanadi, unga yuklatilgan asosiy vazifa esa qurilish jarayonlarini tasvirga olib, oylik hisobotlarni tasvirlar orqali umumlashtiradi. Uy xarid qiluvchilar qurilishning sifati haqidagi dastlabki ma’lumotlarni ma’sul xodimlar va yollangan mutaxassis tomonidan tayyorlangan videolavhalar orqali ham bilib olishadi. O‘zbekiston hududida ham ushbu amaliyotni tajriba sifatida qo‘llab ko‘rish orqali ham yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali qurilish jarayonlarini yoritish nafaqat tomoshabinlar auditoriyasini kengaytirish, balki qurilishda sifat nazoratini kuchaytirishga qurilishda jamoatchilik nazoratini asosini yaratishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv mamlakatdagi bunyodkorliklar orqali O‘zbekiston imijini ham yuqori darajaga olib chiqishga yordam beradi.

Jamoatchilik nazoratiga mahallalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish asosida erishiladi. Bu noqonuniy qurilishlarni oldini olishda eng samarali yo‘l hisoblanadi. Mahalla hududida bo‘layotgan har qanday qurilishdan ushbu hudud fuqarolari xabardor bo‘lishi tayin. O‘zboshimchalik bilan boshlangan qurilish ishlari (ko‘p qavatli uylar, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish binolari va boshq.) haqida Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qurilish inspeksiyasinining ishonch telefonlariga qo‘ng‘iroq qilish orqali hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi va noqonuniy qurilishlarning oldini olish mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Kelgusida qurilish mavzularni yoritish samaradorligini oshirish uchun quyidagilarga e’tibor qaratish talab qilinadi:

1. Auditoriya tahlili: tomoshabinlarning talab va qiziqishlarini o‘rganish orqali kontentlar dolzarbligini oshirish.

2. Multimediaviy yondashuv: televideniya, internet va ijtimoiy tarmoqlarda kontentni sinxron yoritish orqali kengroq auditoriyani qamrab olish.

3. Ixtisoslashgan jurnalistlarni tayyorlash: qurilish mavzularni chuqur tushunadigan va zamonaviy jurnalistik ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlashga e’tibor qaratish.

4. Innovatsion ko‘rsatuv formatlari: qurilish kompaniyalarining ish jarayonidagi holatlar asosida hujjatli filmlarni suratga olish.

5. Soha mutaxassislari ishtirokidagi zamonaviy formatdagi tok-shoular, debat va interaktiv dasturlarni tayyorlash.

Xulosa qilib aytganda, bu kabi targ‘ibot ishlarni ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni amalga oshirish, noqonuniy qurilishlarga yo‘l qo‘ymaslik, fuqarolarning aldanib qolishlarining oldini olish, bundan tashqari, pudrat tashkilotlari vakillarinining qonuniy faoliyat olib borishlariga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). https://ru.studyqa.com/program/specialized-journalism-master-in-university-of-southern-california,10.03.2025.

(2). https://smolgu.ru/upload/educational_process/2023/rp_SMI/,10.03.2025.

(3). Қосимова Н. ва бошқ. Ихтисослашган журналистика. IX jild, T., “Ўзбекистон”, 2019, 3-бет.

(4). https://www.dissercat.com/content/spetsializirovannye-gazety-kak-tip-izdaniya, 10.03.2025.

(5). https://construo.io/tags/journalism,10.03.2025.

Kallibekova Gulnara Palbekovna (PhD, QMU dotsenti)

LEKSIK BIRLIKLARNI TO‘G‘RI QO‘LLASHDA JURNALIST MAHORATI

Annotatsiya*. Gazeta tilidagi perifrazalar, maqollar, iboralarni ishlatishda jurnalist mahorati haqida so‘z yuritiladi. Xususan, o‘rin-joy nomiga aloqadar perifraza, narsa, buyumlar nomiga aloqadar perifrazalar, shaxs nomi bilan aloqadar perifrazalar, shahar nomi bilan aloqadar perifrazalar, son bilan aloqadar perifrazalar misollar orqali ko‘rsatib berilgan. Axborot yozishda qisqalik va aniqlik asosiy talablarning biri ekanligi tushuntirilgan. Qator gazeta materiallari maxsus ruknlar misolida tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *sarlavha, matn, fakt, gazeta, gazeta tili, rukn, muallif, jurnalist.*

ЖУРНАЛИСТСКОЕ МАСТЕРСТВО В ПРАВИЛЬНОМ ПРИМЕНЕНИИ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Аннотация. *Речь идет о журналистском мастерстве в использовании перифраз, пословиц, словосочетаний на газетном языке. В частности, перифразы, относящиеся к названию места, перифразы, относящиеся к названию вещи, предметов, перифразы, относящиеся к имени человека, перифразы, относящиеся к названию города, перифразы, относящиеся к числу, показаны на примерах. Объясняется, что краткость и точность являются одними из основных требований при написании информации. Ряд газетных материалов был проанализирован на примере специальных колонок.*

Ключевые слова: *заголовок, текст, факт, газета, газетный язык, рубрика, автор, журналист.*

JOURNALISTIC MASTERY IN THE CORRECT USE OF LEXICAL UNITS

Annotation*. We are talking about journalistic skill in using periphrases, proverbs and phrases in the newspaper language. In particular, the periphrases related to the name of a place, the periphrases related to the name of a thing, objects, the periphrases related to the name of a person, the periphrases related to the name of a city, the periphrases related to a number are shown in examples. It is explained that brevity and accuracy are among the main requirements when writing information. A number of newspaper materials were analyzed using the example of special columns.*

Keywords: *title, text, fact, newspaper, newspaper language, column, author, journalist.*

Kirish (Introduction). Gazeta tili jurnalist mahorati bilan chambarchas bog‘langan. Gazeta sarlavhalari, ruknlari, matnlari, lid matnlari va faktlarini to‘g‘ri va ixcham etkazib berish jurnalistning asosiy burchi hisoblanadi. Shuning uchun jurnalist o‘z bilimini, mahoratini, so‘z qo‘llash uslubini doimo rivojlantirib borishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Leksik birliklarni to‘g‘ri qo‘llashda jurnalist mahorati keng tadqiq etilmoqda. N.Toshpo‘latovaning muallifligidagi «Bosma ommaviy axborot vositalarida janrlar va mahorat masalalari» nomli kitobida jurnalist ijodida so‘zning ahamiyatini tushuntirib o‘tgan: «So‘z yuki, so‘zni his qilish degan iboralar, asosan, badiiy adabiyot, ayniqsa, nazm borasida fikr yuritilganda bot-bot tilga olinadi. Bu iboralarni jurnalistika janrlarida ham qo‘llasa bo‘ladi. Masalan, oddiy axborot yozishda qisqalikka va aniqlikka rioya qilinadi. Shunday ekan, so‘z ma’nosini yaxshi bilgan, so‘zni his qilgan jurnalist fikrini qisqa satrlarda bayon qiladi. Bunday mahorat tinimsiz o‘qish, izlanish, yozish, qayta-qayta tahrir qilish natijasidagina vujudga keladigan hodisadir».[1] Axborot asrida qisqalikka, aniqlikka etibor qaratish davr talabi ekanligini to‘g‘ri ko‘rsatib bera olgan. N.Qosimova «Ixtisoslashgan jurnalistika» kitobida jurnalist ijodidagi asosiy vazifralarga urg‘u berib o‘tgan: «Jamiyatni, shaxsni o‘rab turgan olamda, hodisalar ko‘p va xilma-xil. OAVning vazifasi ularni ommaga yetkazish. Jurnalist axboroti ijtimoiy jihatdan muhimligi, dolzarbligi, auditoriyaga mo‘ljallanganligi, ommaviy ahamiyatga egaligi, hujjatliligi va tasviriyligi bilan alohida ahamiyatga ega. Uni izlash, olish va tarqatish jurnalistning kasbiy burchi».[2] Jurnalist har bir faktni qiziqarli va aniq yetkazib bera olishi darkor. Uning uchun leksik birliklarni to‘g‘ri tushunish va foydalana olishi zarur. G.Seitnazarovaning «Yangi davr jurnalistikasida ijodiy mahoratning o‘rni va ahamiyati» (Qoraqalpog‘iston matbuoti materiallari misolida) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida ham ijodiy mahorat tahlil qilingan. Uning fikricha: «Til va uslub chambarchas bog‘liq. Agar uslubda ko‘proq tashqi shakl e’tiborga olinadigan bo‘lsa, tilga nisbatan aytish mumkinki, bu ham tashqi, ham ichki shakldir. Tilni tushunish uchun mavzudan xabardor bo‘lish kerak. Bugun jamiyatning turli qatlamlarini til madaniyatiga o‘rgatadigan matbuotga jiddiy ma’suliyat yuklatilgan. Buning asosiy sababi, gazeta tili nisbatan tez rivojlanadi, u adabiy tilda yuz beradigan o‘zgarishlar, yangiliklarni oson qabul qiladi. Yangi so‘z va iboralar adabiy til lug‘atiga o‘tishdan oldin gazeta tili laboratoriyasida sinovdan o‘tadi».[3] Matbuotning vazifasi va unga yuklatilgan mas’uliyat gazeta tili orqali jamiyatning turli qatlamlarini til madaniyatiga o‘rgatish. Demak, matbuot til orqali adabiy tilimizning resursi rivojlanib bora beradi. Mazkur mavzu keyingi yillar da-

[1] Тошпўлатова Н. Босма оммавий ахборот воситаларида жанрлар ва маҳорат масалалари. V жилд, Тошкент, “Ўзбекистон”, 2019, 95-бет.

[2] Қосимова Н. Ихтисослашган журналистика. IX жилд, Тошкент, “Ўзбекистон”, 2019, 214-бет.

[3] Сеитназарова Г. Янги давр журналистикасида ижодий маҳоратнинг ўрни ва аҳамияти (Қорақалпоғистон матбуоти материаллари мисолида). Фил. фан. бўй фалс. док. дисс. автореф., Тошкент, 2021, 18-бет.

vomida Z.Orazımbetova,[1] T.Masharipova,[2] A.Pirniyazova,[3] D.Qurbaniyazov,[4] G.Kallibekovalarning[5] ilmiy ishlarida ham o‘rganilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ommaviy axborot vositalari jamiyat ko‘zgusi. Ularning biri gazeta. Axborotni tezkor yetkazib berishda o‘z faolligini ko‘rsatmoqta. Yangiliklarni operativ ommaga uzatishda gazeta tili o‘z imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanib kelmoqda. Gazeta matnlarini kuzatar ekanmiz, tajribali, bilimli va mahoratli jurnalistlar ijod qilayotgani ko‘zga tashlanadi. Gazetalardagi rasmiy xabarlardan tashqi mualliflar tomonidan tayyorlangan maqolalarda ham yangi so‘z, termin, iboralar mavjud. Shuning uchun ham gazeta tilidagi bu kabi yangi o‘zgarishlarni tadqiq etish zarurligini tadqiqotchilar to‘g‘ri anglay olgan. Ko‘plap tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etilgan va hozirgi davrda ham o‘rganilmoqda. Axborot asrida qisqalikka, aniqlikka, ixchamlikka e’tibor qaratilishi davrning qo‘ygan asosiy talabi. Mazkur jarayon gazeta tilida qanday tasvirlangan. Mazkur mavzuni o‘rganish bizning maqsadimiz. Qisqalik, aniqlik, ixchamlikning asosida matn turadi. Ularni biz tarixiy va taqqosslab o‘rganish metodi asosida tadqiq etganmiz.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Gazetalarda gazeta muxbirlari tomonidan xabarlar tayyorlanadi. «Yangi O‘zbekiston» gazetasi 2025-yil 16-yanvar, 11-soni. «Yangi O‘zbekiston» gazetasi muxbiri Yunus Boronov. «Sayyohlik» ruknida «Boshqaruv to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa…» nomli maqolasi berilgan. Maqolada perifrazalar faol ishlatilgan.

1. O‘rin-joy nomiga aloqadar perifraza. **Samarqand** shahri bilan bog‘liq perifrazalar – «Sahroda qad rostlagan shahar», «Jozibador yurt» sarlavhalari orqali berilgan. Matn ishida ham perifrazalar faol ishlatilgan. Masalan: «O‘shanda vazirning gapini bo‘lib, ***Dubayni*** *duyoning eng taraqqiy etgan sayyohlik markazlaridan biri*ga aylantirish zarurligini aytdim». «Ta’kidlash kerakki, *neft konlariga boy hudud* o‘sha paytlarda aholining farovon yashashi uchun yagona manba hisoblangan». Gapdagi *neft konlariga boy hudud* perifrazasi Birlashgan Arab Amirligi haqida aytilgan. Bugun butun dunyo investitsiya va sayyohlik markazlaridan biriga aylangan BAA poytaxtiga «*kelajak shahri*» deya ta’rif berishadi. Chunki aql bovar qilmas darajadagi arxitektura echimlari asosida bunyod etilgan binolorga *dunyoning manaman degan davlatlari* aholisi ham hayrat va havas bilan qaramoqda». *Kelajak shahri* perifraza bo‘lib, *Dubay* shahriga qarata aytligan. *Dunyoning manaman degan davlatlari* perifrazasi og‘zaki uslubda faol ishlatiladi. Bu matnda to‘g‘ri va o‘z o‘rnida qo‘llanilgan bo‘lib, rivojlangan mamlakatlarning nomlariga qarata keltirilganligi ko‘rinib turibdi. «Pirovardida ***Dubay*** *jahon sayyohlarining eng jozibali manzillaridan biriga* aylandi». Bu misoldagi *jahon sayyohlarining eng jozibali manzillaridan biri* perifrazasi ham *Dubay* shahriga qarata ishlatilganligi kontekstni o‘qish orqali bilamiz.

2. Narsa, buyumlar nomiga aloqadar perifrazalar. Gazeta matnlarida bu kabi misollar faol ishlatiladi. Masalan: «To‘g‘ri, «*qora oltin*» shaharda barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi». Misolda keltirilgan *qora oltin perifrazasi* bu *neft* so‘zi o‘rnida ishlatilgan.

Gazeta muxbiri Nodir Mahmudov. «Yangi O‘zbekiston» gazetasining 2024-yil 20-noyabr, 235-soni. «Yangi O‘zbekiston» gazetasi muxbiri Nodir Mahmudovning «Yo‘ldoshlar» ruknida «Oddiy odamlarning quvonch va tashvishlari» nomli maqolasi berilgan. Maqolada **frazeologizm, maqol va iboralar** ishlatilgan. Masalan: «Ikki tengdoshning samimiy gaplaridan zavqim keldi. – ***To‘rt-besh ko‘ylakni ortiqcha to‘zitganlar***, shuning uchun gurung tizgini sizlarda bo‘lgani yaxshi, –dedim kulib. O‘girilib qarasam, Hasan aka qovog‘ini uyib, oynadan tashqariga qarab jim bo‘lib qolibdi». Misolda keltirilgan – ***To‘rt-besh ko‘ylakni ortiqcha to‘zitganlar*** deb keltirilgan frazeologizmlar *yoshi katta, yoshi ulug‘* ma’nosini bildirib kelgan. «Hasan akaning andak chiroyi ochildi. –***Men bog‘dan kelsam, sen tog‘dan kelasan-a,*** Nuriddin. Hozir ayttim-ku, gaplashib ketamiz deb». «Aniqrog‘i, ularni hal etishga mahallaning *qo‘li kaltalik qilardi*. Bugun ham muammolar yo‘q emas, biroq barchasini bartaraf etish mumkin». «–Ikkovingiz ham gap orasida

---

[1] Orazımbetova Z. Qaraqalpaq ku’ndelikli baspaso‘zi tiliniń stillik o‘zgeshelikleri. Toshkent, «Hilol Media», 2019.

[2] Машарипова Т.Ж. Публицистика назариясининг яхлит концепцияси (илмий-методологик таҳлил, Қорақалпоғистон Республикаси матбуоти материаллари мисолида). Фил. фан. доктори (DSc) диссертацияси автореферати, Нөкис, 2020.

[3] Пирниязова А., Каллибекова Г. Перифраза – сөйлеўдиң көркемлигин тәмийинлеўши қурал. Түркий тиллес халықлары фолклоры ҳәм әдебияты тарийхын изертлеўдиң әҳмийетли мәселелери атамасындағы халықаралық илимий-теориялық конференция топламы. Мақалалар ҳәм тезислер, Нөкис, 2024, 158–160-бетлер.

[4] Қурбаниязов Д. Баспасөз материаллары темаларының стильлик өзгешеликлери. «Глобалласыў процессинде ғалаба хабар қуралларының роли» атамасындағы халықаралық илимий-әмелий конференция материаллары (22-апрель, 2019-жыл). Нөкис, “Қарақалпақстан”, 2019, 37-бет.

[5] Каллибекова Г.П. Tarawlıq gazeta materiallarınıń tili hám stillik ózgeshelikleri. Нөкис, “Илимпаз”, 2022.

«to‘nini teskari kiyish» degan iborani ishlatdilaringiz. Bu jahli chiqqan odamga nisbatan aytilishini bilaman». «–Xalqimizning «to‘nini teskari kiydi» degan iborasi bekorga aytilmaydi». «Avvallari odamlarning kundalik kiyimi to‘n bo‘lgan. ***«Kambag‘alni urma, so‘kma, to‘nini yirt»*** degan ibora ham shundan qolgan. Ha, kambag‘alning to‘ni bir dona bo‘lgan. Agar to‘ni yirtilsa, ko‘chaga kiygani boshqa libosi qolmas edi. Ana o‘sha davrlarda kambag‘al odamning jahli chiqib, birortasi bilan olishmoqchi bo‘lsa, to‘nining ustki qismini avaylab, teskarisini kiyib olar ekan». Misollardagi *«–To‘rt-besh ko‘ylakni ortiqcha to‘zitgansizlar», «– Men bog‘dan kelsam, sen tog‘dan kelasan-a», «to‘nini teskari kiyish», «Kambag‘alni urma, so‘kma, to‘nini yirt»* kabi iboralar tilimizdagi mavjud bo‘lgan boy resurslarimiz namunasi. Gazeta muxbirlari bu iboralarni mohir va kontekstda to‘g‘ri ishlatgan.

Gazeta muxbiri Boboravshan G‘oziddinov. «Yangi O‘zbekiston» gazetasi, 2024-yil 5-dekabr, 247 -son. «Yangi O‘zbekiston» gazetasi muxbiri Boboravshan G‘oziddinovning «Esse» ruknida «Ruhiy ehtiyojdan ijtimoiy zaruratgacha yoxud qonunlar qanday yashaydi?» nomli maqolasi berilgan. Maqola matnida **o‘xshatishlar, perifrazalar** faol ishlatilgan. Masalan: «Kunbotorni tomosha qilib o‘tirgan suhbatdoshim uzoq o‘yga toldi. Uning nigohi qontalash bulutlarga qadalgan, chuqur nafas olishidan yelkasi ko‘tarilib tushardi. U go‘yo ***qushday uchishga chog‘lanar***, ammo zamin oyog‘idan mahkam ushlab turganday edi». “Toshkentda uyim yo‘q edi. ***Katalakday do‘konimga*** har kuni soliqchi kelardi. Sanitariya idorasi bir kunda uch mahal tekshirardi». «Avvalo, ***inson hayoti go‘dak uyqusiday sokin***, maroqli bo‘lishini istaydi». «Senga yordam berishga qasam ichgan ***oq xalatli insonlar*** esa bir parcha qog‘ozga, shu shaharga rasman mansub yoki mansub emasligingga qarab muomala qiladi…». «Falonchi ilg‘or teruvchi, u chanoqda paxta qoldirmaydi. Pistonchi esa buning aksi, paxtani toza termaydi. Boz ustiga, fartug‘idagi «***oq oltin***»ni yerga to‘kib-sochib yuradi», deb yozgan». «Shu zaylda o‘ylarim ***Bosh qonunimiz***, undagi o‘zgarishlar sabab kafolatlangan huquqlarimiz sari ketadi». «Suhbatdoshim tinmay gapirardi. Ro‘paramizda esa ertaga yanada charog‘on kun bo‘lishiga vada berganday ***quyosh ufqni tandirday qizartirgan***». Misollardagi ***qushday uchishga chog‘lanar, katalakday do‘konimga, inson hayoti go‘dak uyqusiday sokin, quyosh ufqni tandirday qizartirgan*** kabi leksik birliklari o‘xshatish bo‘lib, biror narsani ikkinchi predmetga qiyoslab ko‘rsata olgan. *Keyingi qatordagi* ***oq xalatli insonlar, oq oltin, Bosh qonunimiz*** kabi misollar perifraza hisoblanib, ular adabiy tilimizda avvaldan mavjud. Jurnalistlar kontekstda ishlatish orqali badiiylikni ta’miynlay olgan.

Tashqi mualliflar maqolalarida ham perifrazalar faol qo‘llaniladi. A) «Yangi Ozbekiston» gazetasi, 2024-yil 11-dekabr 251-sonida Xayrulla Lutfullayev, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti professori, O‘zbekiston xalq artistining muallifligida keng ko‘lamli maqola berilgan. «Ko‘ngildagi bitiklar» ruknida «Komil tarbiyada musiqaning o‘rni manaviy yuksalishga qaratilayotgan e’tibor zamiridagi hayotiy haqiqatlar» nomli maqolasida badiiylikni ta’minlash maqsadida perifrazalardan foydalanilgan. Masalan:

1. Son bilan aloqadar perifrazalar. «Hayotiy kuzatuvlarim asosida aytishim mumkin: **uchta davr,** ya’ni, *sobiq sho‘rolar tuzumi, mustaqillikning dastlabki yillari va Yangi O‘zbekistonda* boshlangan o‘zgarishlarga shohid bo‘ldim».

2. Qandaydir bir nomni, atamani tushuntirib keluvchi perifrazalar. «**Maqom** – *umumbashariy tuyg‘ularni avj pardalarda tarannum etadigan nodir san’at turi* sifatida ham biz uchun g‘oyat qadrlidir». «*Mumtoz musiqa sanatining gultoji* bo‘lgan betakror **maqomlarimiz** UNESKOning İnsoniyat nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan».

B) «Yangi O‘zbekiston» gazetasi, 2024-yil 26-noyabr, 240-soni. «Buyuk ajdodlarimiz» ruknida «Ali Qushchi: Mangulikning besh yarim asri» nomli maqola Firdavs Abduxoliqov, O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi direktorining muallifligida tayyorlangan.

1. Shaxs nomi bilan aloqadar perifrazalar. «*Mirzo Ulug‘bek astronomiya maktabining yirik vakili, buyuk vatandoshimiz, turk dunyosining yetuk allomalaridan biri* **Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi** nomi dunyo ilmiy jamoatchiligiga yaxshi tanish». «*Mirzo Ulug‘bekning eng ishonchli do‘sti va shogirdi* sifatida u ustozining «Ziji Ko‘ragoniy» asariga sharh yozgan». «Marosimda so‘z olganlar ***Ali Kushchi*** nafaqat buyuk olim, balki *turkiy dunyoëning ikki muhim qutbi – Samarqand va İstanbul o‘rtasidagi marifiy ko‘prik timsoli* ekanini ham ta’kidladi». «Turkiya Fanlar akademiyasi prezidenti Muzaffar Sheker o‘zbekistonlik mehmonlarga tashrif uchun minnatdorlik bildirib, kelgusida *turk dunyosining buyuk vakili bo‘lgan* ***Ali Qushchi*** hayoti va merosini o‘rganish yuzasidan ikki davlat olimlari o‘rtasida hamkorlik qilish lozimligini qayd etdi». Misollardagi *Mirzo Ulug‘bek astronomiya maktabining yirik vakili, buyuk vatandoshimiz, turk dunyosining yetuk allomalaridan biri, Mirzo Ulug‘bekning eng ishonchli do‘sti va shogirdi, turkiy dunyoning ikki muhim qutbi – Samarqand va İstanbul o‘rtasidagi marifiy ko‘prik timsoli kabi perifrazalari* **Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi** nomi bilan bog‘liq ishlatilgan.

2. Shahar nomi bilan aloqadar perifrazalar. Gazeta tilida faktlar aniq berilishi asosiy talabi. Shuning ushun ham voqea-hodisa yuz bergan shaharlar nomi badiiy shaklda ham to‘g‘ri gazetxonga yetkazilgan. Masalan: «Olimning vafotidan so‘ng sultonning farmoniga ko‘ra, hurmat nuqtai nazaridan uni *İstanbulning eng qutlug‘ qadamjosi –**Konstantinopol*** qamali chog‘ida shahid bo‘lgan sahobai kirom Abu Ayyub Ansoriy (r.a.) maqbarasi yoniga dafn etadilar». «Simpozium tufayli yana bir bor *Ali Qushchining so‘nggi damlari kechgan tarixiy shaharga* yo‘l oldik». *İstanbulning eng qutlug‘ qadamjosi, Ali Qushchining so‘nggi damlari kechgan tarixiy shahar* perifrazasi – *Konstantinopol* nomiga bog‘lik shaklda qo‘llanilgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, jurnalist ijodi doimo jamiyat tomonidan kuzatib boriladi. Jurnalist matnni, sarlavhani, lid matnni chiroyli va badiiy shaklda tuzish kerak. Bu jarayon muntazam davom etadigan bo‘lsa, auditoriya uning ijodini doimo kuzatadi. Chunki, uning yozgan xabari, reportaji yoki maqolasi orqali gazetxon o‘ziga kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni oladi. Shuning uchun ham uning ijodi gazetaning qaysi sonida qaysi tilda, qanday uslubda berildi ekan deb qiziqadi va o‘qishni boshlaydi. Demak, jurnalist ijodi orqali auditoriyani o‘ziga qaratadi va uni ushlab qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Pirniyazova A., Kallibekova G. Perifraza – sóylewdiń kórkemligin ta’miyinlewshi qural. Tu’rkiy tilles xalıqları folklorı ha’m ádebiyatı tariyxın izertlewdiń a’hmiyetli máseleleri atamasındağı xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya toplamı, Maqalalar ha’m tezisler, Nókis, 2024, 158–160-betler.

(2). Toshpo‘latova N. Bosma ommaviy axborot vositalarida janrlar va mahorat masalalari. V jild, Toshkent, “O‘zbekiston”, 2019, 95-bet.

(3). Qosimova N. Ixtisoslashgan jurnalistika. IX jild, Toshkent, “O‘zbekiston”, 2019, 214-bet.

(4). Orazımbetova Z. Qaraqalpaq kúndelikli baspasózi tiliniń stillik ózgeshelikleri. Toshkent, «Hilol media», 2019.

(5). Masharipova T.J. Publitsistika nazariyasining yaxlit konsepsiyasi (ilmiy-metodologik tahlil, Qoraqalpog‘iston Respublikasi matbuoti materiallari misolida). Fil. fan. doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati, No‘kis, 2020.

(6). Qurbaniyazov D. Baspasóz materialları temalarınıń stillik ózgeshelikleri. «Globallasıw processinde ǵalaba xabar qurallarınıń roli» atamasındağı xalıqaralıq ilimiy-ámeliy konferenciya materialları (22-aprel, 2019-jıl), Nókis. “Qaraqalpaqstan”, 2019, 37-bet.

(7). Kallibekova G.P. Tarawlıq gazeta materiallarınıń tili hám stillik ózgeshelikleri. Nókis, “İlimpaz”, 2022.

(8). Seitnazarova G. Yangi davr jurnalistikasida ijodiy mahoratning o‘rni va ahamiyati (Qoraqalpog‘iston matbuoti materiallari misolida). Fil. fan. bo‘y fals. dok. diss. avtoref., Toshkent, 2021, 18-bet.